KONCHILIK YO‘NALISHI TALABALARIDA INGLIZ TILIDA KASBIY LEKSIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH UCHUN LEKSIK BIRLIKLAR MINIMUMI TANLASH TAMOYILLARI

Saydullayeva Xusnora Utkirovna
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
E-mail: saydullaevakhusnora@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada konchilik yo‘nalishi talabalarida ingliz tilini o‘qitishda kasbiy leksik kompetensiyani rivojlantirish uchun leksik birliklarni tanlash xususiyatlari va tamoyillari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: leksik kompetensiya, lingvistik kompetensiya, kasbiy leksik kompetensiya, leksik minimum.

Аннотация: В данной научной статье рассматриваются особенности и принципы подбора лексических единиц для развития профессиональной лексической компетентности при обучении английскому языку студентов горного направления.

Ключевые слова: лексическая компетенция, лингвистическая компетенция, профессиональная лексическая компетенция, лексический минимум.

Abstract: This scientific article discusses the features and principles of choosing lexical units for the development of professional lexical competence in teaching English to the students of mining direction.

Keywords: lexical competence, linguistic competence, professional lexical competence, lexical minimum.

Kirish

Leksik kompetensiya talabalarning sohaga oid leksik bilim, ko‘nikma hamda malakalarini qanday egallashlariga bog‘liq bo‘lib, suhbatdoshi fikrlarini aniq tushunishlariga yordam beradi. Leksika bilan ishlashda kognitiv-assotsiativ, kognitiv-kommunikativ tizimlar bilan bog‘liq mashqlar bajarilishi maqsadga muvofiq. Tadqiqotlarimiz davomida ingliz tilini chet til sifatida o‘rganuvchi konchilik yo‘nalishi talabalari kasbiy leksik kompetensiyasi tahlili uning yetarli darajada rivojlanmaganligini ko‘rsatdi. Konchilik yo‘nalishi talabalarining ingliz tilida kasbiy leksik kompetensiyasini CEFR talablari asosida rivojlantirish uchun ularning motivatsiyasini oshirish, yangi leksik bilimlarni mavjud nutq va til malakalari bilan bog‘lash lozim. Chunki, leksika nutqni integrallashgan holda o‘rganish uchun zarur hisoblanadi.

Metodika ijtimoiy-madaniy, kommunikativ, shaxsga yo‘naltirilgan, interfaol va kompetensiyaga asoslangan integrativ yondashuv doirasida ish ko‘radi. Metodika zamonaviy ta’lim modelining ustuvor tamoyillariga asoslanadi: ta’limning uzluksizligi tamoyili, axborot madaniyati tamoyili, axborot va ta’lim

ISSN 3030-3907

texnologiyalaridan ongli va erkin foydalanish tamoyili; hamkorlik tamoyili, ta’lim usullarini integratsiyalash tamoyili, dunyoviy bilimlarni o‘zlashtirish, shuningdek, umumiy didaktik tamoyillar (onglilik, faollik, uzviylik, individuallik va boshqa tamoyillar); metodik tamoyillar (ona tili interferensiyasi va transpozitsiyasini hisobga olish, kommunikativlik, nutq faoliyati turlarini va kontentni o‘zaro integrativ holda o‘rganish, funksionallik). Demak, bir so‘z bilan aytganda, lingvistik kompetensiya quyidagi tamoyillar asosida rivojlantiriladi:

Umumlingvistik tamoyil: til o‘rganuvchi talaba muloqot vaziyatida muloqot maqsadidan kelib chiqqan holda o‘zi ifoda qilmoqchi bo‘lgan har qanday fikrni til birliklaridan hech qanday cheklovlarsiz foydalanib, erkin, ravon ifodalay olishi lozim.

Lug‘at boyligini o‘stirish tamoyili: til o‘rganuvchi talaba til lug‘at boyligining turli mavzu va uslubiy qatlamlarini tashkil qiluvchi elementlardan qiyinchiliklarsiz foydalana olishi, zarur hollarda yaqin bo‘lgan tushunchalarni ifodalashda takrorlar bo‘lmasligini ta’minlash uchun tilda mavjud bo‘lgan ma’nodosh so‘zlardan, idiomatik va turg‘un iboralar hamda so‘zlashuv nutqi unsurlaridan o‘rinli foydalana olishi kerak.

Nutq to‘g‘riligining grammatik tamoyili: til o‘rganuvchi talaba nutqi yuqori darajada grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi kerak. Grammatik xatolarga yo‘l qo‘yilmasligi lozim: til o‘rganuvchi, hatto, murakkab grammatik shakl va konstruksiyalardan o‘z nutqida foydalana olishi zarur.

Nutqning fonologik tamoyili: til o‘rganuvchi talaba o‘zi ifoda qilmoqchi bo‘lgan fikrning barcha qirralari bilan yoritib bera olishi uchun intonatsiyaning turli ko‘rinishlaridan samarali foydalana olishi, so‘z, jumla va gap urg‘usini turli o‘rinlarda to‘g‘ri joylashtira olishi kerak.

Nutqning orfografik tamoyili: til o‘rganuvchi matnni mantiqiy tashkil etish, imlo xatolarga yo‘l qo‘ymasligini ta’minlay olish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishi kerak. Nutqiy faoliyat turlari bo‘yicha qo‘yiladigan talablar quyidagi shaklda bo‘ladi:

- konchilik sohasiga oid konferensiyalarda ishtirok etish uchun ingliz tilida taklif, mushohada, tezislarni yoza olishi;
- grant va stipendiyalar uchun ingliz tilida taklif va arizalar yoza olishi;
- layoqatiga ko‘ra, ishga kirishda inglizcha intervyudan o‘ta olishi.

Yuqorida sanab o‘tilgan tamoyillarga asoslanib, konchilik yo‘nalishi talabalari leksik kompetensiyasi komponentlarini sanab o‘tamiz:

- konchilik sohasi bo‘yicha mavzularga oid kasbiy leksik birliklar va sohaga oid texnik terminlarni boyitib borish;

ISSN 3030-3907

- konchilik sohasiga doir kasbiy leksikani qamrab olgan so‘z yasash modellari asosida yangi so‘zlar hosil qila olish;
- keng ko‘lamli so‘z boyligiga ega bo‘lgan holda muloqot chog‘ida bo‘shliqlarni to‘ldira olish;
- konchilik sohasiga doir og‘zaki nutq va idiomatik iboralarni muloqot jarayonida o‘rinli qo‘llay olish;

Demak, bizning holatimizda konchilik yo‘nalishi 2-kurs talabalari o‘z sohasi bo‘yicha sanab o‘tilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallagan bo‘lishi lozim.

Til kompetensiyasi, jumladan, kasbiy leksik kompetensiya bir xil bo‘lib, tilning fonemik, morfemik, leksik, sintaktik jihatlarini o‘rganadi. Talaba o‘rganayotgan til tizimi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lsa, u lingvistik kompetensiyani egallay oladi. Ingliz tilini bilish sifatiga talabalarning ona tilida kompetentligi ham muhim hissa qo‘shadi.

Leksik bilimlar nutq faoliyatining barcha turlarini erkin egallashni ta’minlaydi. Ingliz tilini o‘rgatishda asosiy e’tibor leksikaga qaratiladi. Leksik kompetensiya produktiv va retseptiv turlarda mavjud leksik kompetensiyalarni rivojlantirish bilan kechadi. Leksik kompetensiya rivojlanishi deganda, talabalarning ingliz tilida qabul qilingan leksik minimumni egallashi va uni nutqda egallangan bilim, ko‘nikma va malaka tarzida amaliy jihatdan qo‘llay olishi tushuniladi.

Ingliz tilida berilgan “kasbiy leksik kompetensiya” tushunchasi haqida ba’zi fikrlarni keltirib o‘tamiz. Lado R., I. Fortanet-Gomez kabi metodistlar ishlarini tahlil qilish natijasida quyidagi fikrni bildirish mumkin: “Kontentni shaklga solib yetkazishda leksik kompetensiya muhim o‘rin tutadi”. Maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili uchun (ESP) va CEFRda (Common European Framework of Reference: Teaching, Learning, Assessment (Council of Europe, 2020: 126 – 131-b.) da “leksik kompetensiya talabaning til lug‘atini bilishi va undan muloqotda foydalana olishidir”. Leksik zahirani oshirish muhimligi to‘g‘risida yevropalik, xususan, ingliz tilida so‘zlashuvchi mutaxassislar M.P. Delgado va C. M. Barrigit, “Ingliz tilini o‘qitish jarayonida lug‘atni bilish va undan foydalana olish, degan tushuncha chuqur o‘rnashgan bo‘lib, o‘qituvchilar ona tilini yoki ingliz tilini bilishda, ularning lug‘at boyligi kam”, – degan iborani ishlatishadi.

Bizning fikrimizcha, har qanday, jumladan konchilikka oid kasbiy leksik birlikni o‘zlashtirish quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

eshitganda konchilikka oid kasbiy leksik birliklarni tushunish va uni talaffuz eta olish; konchilik sohasiga doir kasbiy leksik birliklarning yozma shaklini bilish va uni yoza olish; konchilik sohasiga doir kasbiy leksik birliklar morfologiyasini to‘g‘ri ifodalay bilish; konchilik sohasiga doir kasbiy leksik birliklarning bir nechta

ISSN 3030-3907

ma’nolarini bilish va kontekstga moslab denotativ (asl ma’no) va konnotativ (kontekstual ma’no) jihatdan to‘g‘ri ishlata olish; konchilik sohasiga doir kasbiy leksik birliklarning grammatik kategoriyasini bilish; kasbiy sohaga doir leksik birliklarni sintaktik jihatdan to‘g‘ri tuza olish; konchilik sohasiga doir kasbiy leksik birliklarni ma’no (sinonim, antonim, omonim va polisemiya) jihatdan ishlata olish; konchilik sohasiga doir leksik birliklarni nutqiy muloqotda qo‘llash; konchilik sohasiga doir leksik birliklarning ko‘p ishlatiladigan sohasini bilish; konchilik sohasiga doir leksik birliklarning qanday ma’lumot berishini aniqlash; konchilik sohasiga doir leksik birliklarning boshqa tilda ekvivalentlarini bilish.

Leksik kompetensiyani o‘rgatishda lingvistik lug‘atlarning asosiy turlari, ularda so‘zning ma’no tuzilishi, tilning faol (aktiv) va nofaol (passiv) leksikasi, yangi o‘zlashtirilgan leksik birliklar, sohaga oid idiomalar, jargonlar tarjimasi va boshqa jihatlari juda muhim hisoblanadi. Til kompetensiyasidan farqli ravishda, leksik kompetensiya leksik bilim, ko‘nikma, malaka yig‘indisi bo‘lib, talabalardan kontekstda u yoki bu so‘z ma’nosini to‘g‘ri tanlashni anglatadi. Tanlangan so‘zning ona tilidagi varianti bilan analogik moslik asosida qiyoslanganda, so‘z ma’nosi anglab olinishiga asosiy e’tibor qaratiladi. So‘zni tanlash tamoyili gapda gradatsion (ko‘payib borish, miqdorni oshib borishi) tarzda ishlatilgan so‘z tartibi, gap bo‘laklarini o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llashni talab etadi.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib, konchilik yo‘nalishi 2-kurs talabalari uchun leksik birliklar tanlash uchun qo‘yilgan talablar kontentini tanlash tamoyillarini ham sanab o‘tishimiz o‘rinli:

1. Kontent soha uchun dolzarb, mos bo‘lishi tamoyili: kontent albatta, tog‘-kon sanoati bilan bog‘liq bo‘lib, unda qo‘llaniladigan leksik minimum konchilik xususiyatini inobatga olishi zarur. Kontent tarkibi konchilik sohasining turli jabhalari: tog‘-kon sanoati, shu jumladan, burg‘ulash, portlatish, qazish, konchilik, geologiya, konlarni rejalashtirish, atrof-muhitni boshqarish, xavfsizlik tartib-qoidalari kabilardan tashkil topishi kerak. Bunday kontent talabalarga sohaning keng qamrovli lug‘at tizimini egallash, foydali qazilmalarni qazish hamda qayta ishlash faoliyatida qo‘llay olish kompetensiyasiga ega bo‘ladilar.

2. So‘z va iboralardan foydalanish chastotasi. So‘z boyligi odatda konchilik sanoatida qo‘llaniladigan leksik biriklarni tashkil etishi bilan talabalar nutqida va muloqot chog‘ida ishlatadigan terminlarni tezda ilg‘ab, suhbatdoshi fikriga munosabatini bildira olishini kafolatlashi zarur. Muloqotda qo‘llaniladigan texnik matnlarda ishlatiladigan terminlar konchilik yo‘nalishi 2-kurs talabalariga oldindan tanish bo‘lgan iboralarga tayangan bo‘lishi maqsadga muvofiq.

4. Kontentni bosqichma-bosqich rivojlantirish tamoyili: Kontent bosqichma-bosqich rivojlanishni ta’minlaydigan va oldingi bilimlarga

ISSN 3030-3907

asoslanadigan tarzda tanlanishi kerak. U bazaviy lug‘atdan boshlanib, oddiydan murakkabga tamoyili asosida asta-sekinlik bilan murakkablashib borishiga e’tibor qaratilishi zarur. Bunday holatda konchilik talabalari tildan foydalanish jarayonida lozim bo‘lgan aktiv leksik birlik 1000 tadan oshmasligi va me’yorga amal qilishi o‘qituvchi diqqat markazida bo‘lishi kerak.

5. Kontent autentikligi. Imkon qadar konchilik sohasiga tegishli autentik kontent bo‘lishiga harakat qilish kerak. Autentlikni ta’minlovchi real – hayotiy matnlar, ilmiy maqolalar, ilmiy-tadqiqot ishlari, sohaga oid ilmiy va mutaxassislikka oid adabiyotlar kiritilib, inglizcha muloqot chog‘ida soha terminologiyasini qo‘llash imkonini berishi talab etiladi.

6. Kontentning amaliyotga mos bo‘lishi tamoyili: Tanlangan kontent amaliyotda qo‘llash uchun mos bo‘lishi va talabalarning kelajakda ilmiy va kasbiy faoliyati uchun foydali bo‘lishi zarur. Kurs ishlari mavzulari, tadqiqot loyihalari, taqdimotlari va tog‘-kon sanoatida bo‘lg‘usi karyeralari uchun foydali bo‘lishiga e’tibor qaratilishi kerak.

Sanab o‘tilgan tamoyillarni yodda tutgan holda, konchilik sohasi bo‘yicha talabalar kasbiy leksik kompetensiyasi kontentini keng qamrovli, soha ehtiyojlariga mos kelishini ta’minlash – o‘qituvchi zimmasiga tushishini yana bir karra esda tutish zarur. Ingliz tilini chet til sifatida o‘rganuvchi konchilik yo‘nalishi 2-kurs talabalari kasbiy leksik kompetensiyasining rivojlanish jarayoni ta’limning kommunikativ yo‘naltirilganligi, kasbiy leksik materialni berishda barcha nutq faoliyati turlarini integratsiyalashgan holda kelishi, kasbiy leksik birliklar tizimliligini hisobga olish, ijtimoiy-madaniy bilimlar yig‘indisi, so‘z birligining tizimli tanlanishi va taqdim qilinishi, leksikani ongli tarzda egallash kabi tamoyillarga asoslanadi.

Yuqoridagi tamoyillarga asoslangan holda konchilik yo‘nalishi 2-kurs talabalari kasbiy leksik kompetensiyasi komponentlari tarkibiga quyidagilar kiritildi:

1. Texnik terminlar: Konchilik yo‘nalishi 2-kurs talabalari sohaga oid leksik birliklar, jumladan, texnik terminlarni talab darajasida o‘zlashtirgan bo‘lishlari kerak. Konchi-talabalar tog‘-kon sohasi bilan bog‘liq terminlar, foydali qazilmalarni qazishda foydalaniladigan qurilmalar, qazish jarayonlari, metodlari va xavfsizlik qoidalariga oid terminlarni bilishlari talab etiladi.

2. Sohaga oid paremiologik birliklar: konchilik yo‘nalishi 2-kurs talabalari sohaga oid leksik birliklardan tashqari konchilikka oid terminlarni tushunishi talab etiladi. Talabalar soha mutaxassislari bilan bo‘ladigan muloqot chog‘ida qo‘llaniladigan sohaga taalluqli maqol, matal, turg‘un iboralar va jargonlar bilan tanish bo‘lishlari maqsadga muvofiq.

ISSN 3030-3907

3. Terminologiyani sharhlash va amaliyotda qo‘llash: konchilik yo‘nalishi 2-kurs talabalari foydali qazilmalarni topish, qazib olish bilan bog‘liq texnik terminlarni ingliz tili yozma va og‘zaki nutqida qo‘llagan holda ularni sharhlash va amaliyotda foydalana olish kompetensiyasini egallagan bo‘lishlari zarur. Soha kontekstida ishlatiladigan texnik terminologiyani tushungan holda amaliyotda qo‘llay olish kompetensiyasiga ega bo‘lishi talab etiladi.

4. Uzluksiz o‘rganish (Life-long learning): konchilik yo‘nalishi 2-kurs talabalari doimiy ravishda o‘z ustida ishlab, konchilik sanoati terminlarini o‘rganishi, so‘z boyligini oshirishi, ularni mudom yangilab borishi zarur. Talabalardan konchilik sanoatiga oid nashrlarni o‘qish, konferensiyalar, o‘quv va ilmiy seminarlarda qatnashish, kasbiy rivojlanishga bag‘ishlangan tadbirlarda faol ishtirok etish talab etiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, konchilik yo‘nalishi 2-kurs talabalari kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi butun bir yaxlit jarayon bo‘lib, uni amalga oshirish ingliz tili ta’limining kommunikativlik tamoyili asosida amalga oshiriladi. Kasbiy leksik material talabaga nutq faoliyati turlarini integrativ holda o‘rganish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Attard S., Walter L. The CLIL4U Guidebook with Technology - Enhanced Learning Clilstore, 2021. – 161p.
2. Fortanet-Gomez I. Critical Components of Integrating Content and Language in Spanish Higher Education // J. of Language, Learning and Academic Writing. 2011. Vol. 8. Issue 3. – P.1-11.
3. Lado R. Language teaching, a scientific approach. – New York: McGraw- Hill, 1964. –239p.
4. Mehisto P., Marsh D., & Frigols M.J. Uncovering CLIL: Content and Language Integrated Learning in Bilingual and Multilingual Education. – Oxford: Macmillan Education, 2008. – 238 p.
5. Nation P. New Ways in Teaching Vocabulary. Teachers of English to Speakers of Other Languages Publication. – Washington D.C: ERIC Clearinghouse, 1994. – 227 p.
6. Алексеева Л.Е. Методика обучения профессионально ориентированному иностранному языку /– Санкт- Петербург: СПбГУ, 2007. – 136 с.
7. Безбородова С.А. Развитие иноязычной профессиональной лексической компетенции студентов горных специалностей на основе информационно - коммуникационных технологий: Дисс... канд. пед. наук. Екатеринбург: УГПУ, 2016. – 251 с.

ISSN 3030-3907